



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Габдуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Inson kapitali iqtisodiyoti
Economics of human capital
Экономика человеческого
капитала



AGRAR SOHADA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINING IQTISODIY MOHIYATI

Boltayev Nurali Shiramatovich

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ ПЕРСОНАЛА В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОМ СЕКТОРЕ

Болтаев Нурали Шираматович

THE ECONOMIC ESSENCE OF THE STAFF TRAINING SYSTEM IN THE AGRICULTURAL SECTOR

Nurali Shiramatovich Boltayev

Received: March 4, 2026 Revised: March 6, 2026 Accepted: March 12, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Maqolada agrar sohada malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy asoslangan tavsiyalarni sohada qo'llash, bilimga asoslangan ilmiy-amaliy mexanizmlarni tizimlashtirish, bir-biriga uzviy bog'langan tizim yaratish orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkin bo'ladi. Agrar sohada kadrlar tayyorlashning iqtisodiy ta'sir yo'nalishlari, uning ahamiyati, natijasi va afzalliklari, kadrlar tayyorlashda OTM va ish beruvchi o'rtasida iqtisodiy mexanizmlar va rag'batlantirish tizimining ahamiyati bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Agrar soha, kadrlar tayyorlash, tizim, iqtisodiy, malakali, oliy ta'lim, mexanizm, ilmiy asoslangan.

Аннотация: В статье говорится, что экономический рост может быть достигнут за счет подготовки квалифицированных кадров в аграрном секторе и применения научно обоснованных рекомендаций в этой области, систематизации научно-практических механизмов, основанных на знаниях, и создания взаимосвязанной системы. Разработаны научно-практические рекомендации по направлениям экономического воздействия подготовки кадров в аграрной сфере, ее значению, результатам и преимуществам, значению экономических механизмов и системы стимулирования между вузом и работодателем в подготовке кадров.

Ключевые слова: Аграрный сектор, подготовка кадров, система, экономический, квалифицированный, высшее образование, механизм, научно обоснованный.

Abstract: In the article, it will be possible to achieve economic growth by training qualified personnel in the agricultural sector and applying scientifically based recommendations in the field, systematizing scientific and practical mechanisms based on knowledge, and creating an interconnected system. Scientific and practical recommendations have been developed on the directions of economic impact of personnel training in the agricultural sector, its significance, results and advantages, the importance of economic mechanisms and the incentive system between the university and the employer in personnel training.

Keywords: Agrarian sector, personnel training, system, economic, qualified, higher education, mechanism, scientifically based.

■ KIRISH

Jahonda oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning iqtisodiy mohiyati inson kapitalini rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning o'sishi, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon inson kapitaliga investitsiya sifatida qaraladi. Chunki mamlakat taraqqiyoti belgilashda yuqori malakali kadrlarni o'rni beqiyosdir. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tadbqiq etish, ularni takomillashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarining iqtisodiy o'sishga erishishda

mehnat resurslarining tegishli malaka, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Jahon Banki va Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, oliy ta'lim bitiruvchilari uchun iqtisodiyot tarmoqlariga foyda keltirishi eng yuqori darajada bo'lib, o'rtacha 17% ni tashkil etadi. Bu daromad o'sishini ta'minlaydi (boshlang'ich ta'limdagi 10% va o'rta ta'limdagi 7% ga nisbatan)[1]. Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning asosiy jihatlari sifatida ta'lim oluvchilar mehnat bozorida shaxsiy daromad va bandligini ta'minlash, milliy iqtisodiy o'sish, masalan agrar sohada malakali kadrlar hosildorlikni oshirishda,



innovatsiyalarni joriy etish va texnologik rivojlanishni ta'minlaydi. Ya'ni, zamonaviy bilimlarni egallagan kadrlar iqtisodiyotda innovatsiyalarni tez amaliyotga tadbiiq etish, IT, biotexnologiya, yashil energiyalardan samarali foydalana oladi. Shuning bilan birga, jamiyatda tadbirkorlik rivojlanadi, soliqlar tushumlari ortadi, barqaror rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va global raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Natijada, bu tizim nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki butun jamiyat va davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiy jihati qishloq xo'jaligining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon global miqyosda iqtisodiy o'sish, aholini yashash turmush tarzini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Jahon tajribasida agrar sohani raqamlashtirish, iqlim o'zgarishi va texnologik yangiliklar tufayli doimiy ravishda kadrlar malakasini oshirishni talab etadi, chunki malakali ishchi kuchi hosildorlikni 10-20% ga oshirishi va innovatsiyalarni joriy etishga yordam beradi, masalan, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish orqali xarajatlar kamayadi va daromad ortadi. Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, o'qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali tashkil etish, iqtisodiy rivojlanishga va oziq-ovqat xavfsizligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu tizim inson resurslarini boshqarish orqali ekologik muammolarni hal etish, migrant ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash va oilaviy fermalarni qo'llab-quvvatlash kabi omillarni hisobga olib, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, natijada global iqtisodiyotda agrar sohaning hisssasi ortadi.

Yangi O'zbekistonni barpo qilish va taraqqiy etishida davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, yoshlarni zamonaviy kasb va mutaxassisliklarida tayyorlash lozimligini qayd etmoqda. Jumladan, 2026-yilning 24-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan muloqoti bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi studiyalar orqali 60 mingdan ziyod yoshlar vakillari ishtirok etdi. Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuch ekanini ta'kidladi. Barcha darajadagi rahbarlar yoshlarni til va kasb-hunarga o'rgatish, sportga jalb etish, g'oya, loyiha hamda startaplariga ko'mak berish, ularni ishli va daromadli qilish bo'yicha yanada faol ishlashi, birorta yigit-qizni e'tiborsiz qoldirmasligi zarurligi qayd etildi. Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi nufuzli oliygohlarda tahsil olayotgan talaba yoshlarimiz 500 nafardan, TOP-100 talikdagi oliygohlarda o'qiyotgan yigit-qizlarimiz 3,5 ming nafardan oshdi. Yoshlarimiz yaratgan 63 ta startap loyihasi AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga kirib borgan. Har yili 600 ming yosh mehnat bozoriga kirib kelayotgani, 2030 yilga borib, bu ko'rsatkich 1 millionga etishini qayd etib, yoshlarga o'z imkoniyati va qiziqishiga mos ish topishi uchun sharoit yaratish eng muhim masala ekanini ko'rsatib o'tdi. Yoshlar o'rtasidagi so'rovnomalar natijasiga ko'ra,

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

ularning uchdan biri tadbirkor bo'lish istagini bildirgan. 2025 yilda yoshlar bandligini ta'minlash uchun banklar va Yoshlar ishlari agentligiga 400 million dollar yo'naltirilgani, "Yoshlar biznesi" va "Kelajakka qadam" dasturlari hisobidan 15 ming nafar yosh o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yib, 50 ming kishini ish bilan ta'minlagani ta'kidlandi. Shuning bilan birga, agrar sohada kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch universitet hisoblangan Toshkent davlat agrar universitetining qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va agromuhandislik yo'nalishidagi talabalarini "dual" ta'lim asosida bevosita Chirchiqdagi agro-tex klasterida o'qitish orqali bir vaqtning o'zida ishlab, maosh olishi hamda universitetda har biri 5 nafar talabadan iborat "Kelajak fermerlari" eksperimental jamoalari tashkil etilishi, ushbu jamoalar o'quv yili davomida 10 sotix erni o'zlashtirib, o'zlari ekin ekadi. Ular erning unumdorligini oshirish, serhosil va yuqori daromad olish ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, kursdan kursga o'tishi ta'kidlandi[2].

Ushbu belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ilmiy asoslangan echimlar bilan yondashgan holda oliy ta'lim tashkilotlarida malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish kerak. Ayniqsa, agrar sohada tabiiy resurslari ta'siri, iqlim o'zgarishi, ekologik omillarni hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, amaliyotlarni to'g'ri tashkil etish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur. Chunki, agrar sohada iqtisodiy o'sish va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish muhim hisoblanadi. Buning uchun qishloq xo'jaligi bo'yicha maslahat xizmatlari, yangi bilimlarni, intensiv texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda joylarga chiqqan holda seminar-treninglar, davra suhbatlarini tashkil etish orqali soha rahbar va xodimlarini tajribalarini oshirishga erishiladi. Klaster, fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa er egalari bilimlarini boyitish orqali er va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi subektlari tadqiqot va maslahat markazlarining tavsiyalarini amaliyotga joriy etish orqali moliyaviy holatini yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, sohada aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish uchun bilimli yoshlarni tayyorlash kerak.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston sharoitida agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimini bozor mexanizmlari (talab va taklif asosida rivojlantirish), ta'lim-ilm-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi va xorijiy tajribani joriy etish orqali yanada samarali qilish imkoniyatlari mavjud. Buning natijasida, agrar soha nafaqat oziq-ovqat ta'minotini ta'minlovchi, balki milliy iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi drayveri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, agrar sohada kadrlar tayyorlashning iqtisodiy ahamiyati haqida ko'plab olimlar ilmiy-izlanishlar olib borib, o'z fikrlarini bildirgan. Jumladan, Theodore W. Schultz (AQSh iqtisodchisi, 1979 yil Nobel mukofoti sohibi): U agrar sohada inson kapitaliga (ta'lim, malaka, sog'liq) investitsiya qilish qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning asosiy omili ekanligini ta'kidladi. Uning fikricha, inson kapitali investitsiyasi



qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sish va kambag'allikni kamaytirishning kalitidir[3].

Gary S. Becker (AQSh iqtisodchisi, inson kapitali nazariyasi asoschilaridan): Inson kapitali (ta'lim va trening) investitsiyasi biznesdagi jismoniy kapital kabi ishlaydi va qishloq xo'jaligida ham daromadni oshiradi. Malakali kadrlar tannarxni pasaytirib, samaradorlikni oshirishini ta'kidladi[4]. Bu nazariya agrar sohada ta'limning iqtisodiy rentabelligini raqamlar bilan isbotladi.

Shuningdek, Wallace E. Huffman (AQSh iqtisodchisi, zamonaviy tadqiqotchi): Agrar ta'lim qishloq xo'jaligi o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Agrar ta'lim tizimini rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash hosildorlikni 10–30% ga oshirishini qayd etgan[5].

Lorena C. Espina-Romero va boshqalar tomonidan har bir sohada xodimlarni yumshoq ko'nikmalar (Soft skills, ya'ni bu har qanday ishda muvaffaqiyatga erishish uchun kerak bo'ladigan ko'nikmalar)ni o'rganish qiziqishi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Mazkur tadqiqotda 1999–2021 yillar davomida kadrlar tayyorlashda soft skills bilan bog'liq Scopus bazasidagi 753 ta nashrni tahlil qilishgan. Ushbu hujjatlar asosiy ma'lumotlarida eng ko'p o'rganilgan sohalarida kelajakdagi kun tartibini belgilash, istiqbolli rejalarni amalga oshirish, bugungi kun natijalarini tahlil qilish bo'yicha o'zlarining yondashuvlarini taklif etgan[6]. Albatta, agrar sohada kadrlar tayyorlashda uning o'ziga xos xususiyatlari, er-suv bilan bog'liq bo'lgan tabiiy omillarni hisobga olish, atrof-muhitni asrashga va cheklangan resurslar salohiyatidan unumli foydalanishni taqozo qiladi.

W.Wenjie va A.A.Kurbanbaevlar qishloq xo'jaligi korxonalarida xodimlarni boshqarish strategiyasi turli jihatlarni qamrab olishini, jumladan, xodimlarni yollash va tanlash, o'qitish va rivojlantirish, motivatsiya va xodimlarni saqlab qolishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ixtisoslashtirish masalasi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Bunda, mehnat munosabatlari va ijtimoiy-madaniy jihatlar bilan bog'liq muammolarni hal etish, xavfsizlik va mehnat sharoitlarini ta'minlash, qulay ish muhitini yaratish zarurligini asoslab bergan[7]. Bizning fikrimizcha, respublikamizda qishloq xo'jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv usullari, psixologiya, mehnat munosabatlari, raqamlashtirish kabi fanlarni o'qitish lozim bo'ladi. Ya'ni, belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash uchun xodimlar bir-birlari bilan o'zaro munosabatga kirishganda muloqot madaniyatiga amal qilishi lozim bo'ladi.

Respublikamiz olimlaridan A.J.Toshboyev, Z.T.Siddikov, N.Sh.Boltayevlar O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti va agrar soha islohotlarni amalga oshirish va kutilgan natijalarga erishish bevosita ushbu jarayonlarni tashkil etuvchi professional kadrlarga bog'liq ekanligi, ya'ni, agrar sohada yuqori natijalarga erishishda mutaxassis kadrlardan yuksak bilim, salohiyat va kasbiy mahorat kabi sifatlarni talab etishini ta'kidlagan. Bundan tashqari, har bir soha, yo'nalish bo'yicha har bir korxona va tashkilotda kadrlar

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

boshqaruvini to'g'ri tashkil etish, har bir ishga zarur bilim va salohiyatga ega bo'lgan eng malakali kadrlarni joy-joyiga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarni samarali bo'lishida ekonometrik tahlil orqali, omillar ta'sirini baholashga asoslangan tahlillar olib borilgan. Bunda, agrar soha uchun kadrlar tayyorlaydigan Toshkent davlat agrar universitetida bitiruvchilarning ish bilan bandlik ko'rsatkichini natija sifatida belgilangan bo'lsa, uning o'zgarishiga professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, bitiruvchi tayyorlanayotgan muassasaning ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorligi, ta'lim muassasasidagi ilmiy izlanishlar darajasi, ta'limning xalqaro tajribalarga uyg'unligi, o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etilganlik darajasi kabi bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisobga olingan[8]. Shuningdek, ushbu omillar natijasida malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirish istiqbollari belgilangan.

Mazkur iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar bugungi kunda davlatlar iqtisodiyotini, xususan, agrar sohada iqtisodiy o'sishga erishish uchun malakali kadrlar tayyorlash zarur bo'ladi. Chunki malakali kadrlar qishloq xo'jaligining samaradorligi, hosildorlik, innovatsiyalar va umumiy iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. Bu jarayon O'zbekiston milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiy mohiyatini asoslashda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi texnologiyalar bilan bog'liq keskinlik tobora ortib borayotgan davrda taklif qilinayotgan innovatsiyalar va texnologiyalar fermerlarning qadriyatlarini, amaliyotlari va uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan, madaniy jihatdan qabul qilingan xulq-atvor modellarida ma'lum darajada o'zgarishni talab qilishini taqozo etadi.

Ya'ni, agrar sohada malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy asoslangan tavsiyalarni sohada qo'llash uchun avvalo, bilimga asoslangan ilmiy-amaliy mexanizmlarni tizimlashtirish asosida bir-biriga uzviy bog'langan tizim ishlashi kerak (1-rasm). Bunda, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari, geografik joylashuvi inobatga olinib kadrlar tayyorlashning muvaffaqiyatli tizimi yo'lga qo'yiladi.

1-rasmda agrar sohada kadrlar tayyorlashning bilimga asoslangan ilmiy-amaliy mexanizmlarni tizimlashtirishning to'rtta asosiy yo'nalishlar ko'rsatilgan: institutsional asoslar va iqtisodiy rag'batlantirish, malakali va bilimli mehnat resurslari, innovatsiyalarni joriy tizimi va zamonaviy infratuzilma. Biz ushbu model asosida mehnat resurslari o'z funksiyalarini bajarishda amaliyotga yangi resurstejamkor texnologiyalarni joriy qilish, har bir tizimning integratsiyalashishi orqali agrobiznesda unumdorlik va samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatish mexanizmi vujudga keladi.



1-rasm. Ilmiy-amaliy mexanizmlarni tizimlashtirish zaruriyati¹⁹

O'zbekistonda "kadrlar tayyorlash"ning mohiyati ilmiy jihatdan o'rganilganda, ayrim olimlar "yuqori malakali kadrlar" tushunchasining mazmunini aniqlashning meyoriy-huquqiy tamoyillari umumlashtiriladi. Ilm-fan va ta'limda tezkor o'zgarishlar sharoitida iqtisodiyotning agrar sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishning kompleks yondashuvini potensial jihatdan afzalliklari ijobiy hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qishloq xo'jaligi sektorining roli va ahamiyati alohida yondashuvlar asosida ko'rib chiqiladi. Sohada modernizatsiya zarurligini belgilovchi omillar globallashtirish jarayonlarining ta'sirining kuchayishi, ilmiy-texnika taraqqiyotining tezlashishi, iqlim o'zgarishi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashishi bilan tavsiflanadi. Sanoat 4.0 sharoitida ilmiy-texnika taraqqiyotining zamonaviy rivojlanish darajasi va agrar sohaga innovatsiyalarni joriy etish strategiyasini amalga oshirish zarurligi ta'kidlanadi. Mamlakatning ilg'or qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion faoliyati tajribasini shuni ko'rsatadi, ular mahsulot etishtirish jarayonida xorij tajribasidan foydalanmoqda yoki xorijlik mutaxassislarni ishlab chiqarish chiqarish jarayoniga jalb qilgan. Bu esa, innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish samaradorligining agrar sohadagi kadrlar malakasiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Iqtisodiyotning agrar sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaxlit boshqaruv tizimi sifatida modernizatsiya qilishga kompleks yondashuvni ishlab chiqish, uning maqsadlari, tamoyillari, funksiyalari, usullari, kadrlar ta'minoti, tashkiliy tuzilmalari va boshqa tarkibiy qismlari o'rganish lozim bo'ladi. Tadqiqot natijalaridan amaliy foydalanish zamonaviy o'zgarishlar sharoitida agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish imkonini beradi.

Jahon tajribasida agrar sohani rivojlanishi natijasida boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining jadal taraqqiy etganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Xitoy davlatining bugungi kundagi iqtisodiyotning

barqaror bo'lishiga asosiy omil sifatida agrar soha xizmat qilgan. Shu bois, O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirish va kadrlar tayyorlash iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili ekanligini qayd etish joizdir. Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash orqali malakali mutaxassislar tayyorlash orqali tarmoqda hosildorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va innovatsiyalarni joriy etishni ta'minlaydi. Bu borada sohada kadrlar tayyorlashda dual ta'lim tizimini joriy etish va innovatsiyalar uchun yuqori maosh belgilash orqali agrar sohaning samaradorligini oshirish bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan tizimli ishlar olib borilmoqda. Ya'ni, agrar sohada kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch hisoblangan Toshkent davlat agrar universitetida ilm-fan va ta'limni modernizatsiya qilish, talabalarni ishlab chiqarish korxonalarida amaliyotini tashkil etish va soha rahbar-xodimlarini qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu iqtisodiy samaradorlikni oshirish va mehnat bozorida talab yuqori mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy natijasidir. Umuman olganda, agrar sohada malakali kadrlarni tayyorlash orqali yangi erlarni o'zlashtirish va texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi, bu esa qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2024-yilning 19 sentabr kuni qishloq xo'jaligidagi islohotlar ijrosi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda "Asosiy maqsadimiz qishloq xo'jaligini ilmiy asoslangan, BMTning eng yaxshi tajribalarini tatbiq qilgan holda rivojlantirish", zarurligi ta'kidlandi[9]. Shu bois, agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan ta'lim muassasalari oldiga "Universitet 3.0" va "Universitet 4.0" modeli asosida faoliyat ko'rsatishini taqozo etadi. Bu modellar asosiy maqsadi fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o'rnatish, oliy ta'lim tashkilotlarida texnologik startaplar yaratish, raqamlashtirish va biznes jarayonlari avtomatlashtirish,

¹⁹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish, ommaviy ishlab chiqarishdan iste'molchilarning individual talablari asosida xizmatlar ko'rsatish orqali oliy ta'lim muassasalari mahalliy va xalqaro darajada nufuzini va ishonchini oshirishga e'tibor qaratishdan iborat. Shuningdek, rivojlangan davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari tajribalaridan kelib chiqib, soha va hududlar iqtisodiyoti yaxshilashda ularning ishtirokini ta'minlash, ishlab chiqarish korxonalari bilan doimiy ravishda integratsiya qilish orqali zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash mumkin bo'ladi.

Agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimi nafaqat ta'lim jarayoni, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun muhim iqtisodiy resurs va kapital turi — inson kapitalini shakllantirishning asosiy mexanizmidir. Uning iqtisodiy mohiyati quyidagi asosiy jihatlarida namoyon bo'ladi:

birinchidan, agrar sohada malakali mutaxassislar (agronomlar, zootexniklar, agroteknologlar, menejerlar, iqtisodchilar, innovatsion texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar) tayyorlash orqali mehnat unumdorligi oshadi. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini va eksport salohiyatini kuchaytiradi;

ikkinchidan, iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida O'zbekiston iqtisodiyotida YaiMning 25–30%ini, bandlikning 27–30%ini ta'minlaydi. Shu sababli, kadrlar tayyorlash tizimi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali agrosanoat majmuasining o'sish sur'atlarini tezlashtiradi va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi;

uchinchidan, innovatsiyalar va texnologik modernizatsiyani ta'minlash asosida zamonaviy agrar texnologiyalar (aniq qishloq xo'jaligi, dronlar, aqlli sug'orish, GMO bo'lmagan yuqori hosildor navlar) faqat malakali kadrlar tomonidan samarali joriy etiladi.

Kadrlar tayyorlash tizimi ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi "bilim ko'prigi" vazifasini bajaradi. Natijada, investitsiyalarning samaradorligi oshadi va xorijiy texnologiyalarni o'zlashtirish jarayoni tezlashadi;

to'rtinchidan, mehnat bozori va resurslarni samarali taqsimlashda istiqboldagi ehtiyojlarga mos kadrlar tayyorlash orqali mehnat resurslarini optimal joylashtiradi. Bu esa qishloq joylarda ishsizlikni kamaytiradi, malakali kadrlar tadbirkorlikni rivojlantirib, fermer xo'jaliklari, klasterlar va qayta ishlash korxonalarini ko'paytiradi;

beshinchidan, davlat va xususiy sektor investitsiyalarining qaytish jarayonida kadrlar tayyorlashga sarflangan har bir so'm (davlat byudjeti, xususiy sektor, xalqaro grantlar) uzoq muddatda ko'p barobar qaytadi: yuqori hosildorlik, eksport daromadi o'sishi, soliq tushumlari ko'payishi shaklida. Masalan, xorijiy tajribada (AQSh, Niderlandiya, Isroil) agrar ta'lim va malaka oshirishga qilingan investitsiyalar agrar sohaning eksportini 3–5 barobar oshirgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiy mohiyati shundaki, u oddiy ta'lim emas, balki ishlab chiqarish kuchlarining asosiy omili — inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidir. Bu tizim qishloq xo'jaligini intensiv yo'l bilan rivojlantirish, resurslarni tejash, innovatsiyalarni joriy etish va mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Shu bois, ilmiy izlanishlarimiz davomida agrar sohada kadrlar tayyorlashning iqtisodiy ta'sir yo'nalishlari, uning ahamiyati, natijasi va afzalliklari ishlab chiqildi (2-jadval). Agrar sohada kadrlar tayyorlash orqali hosildorlik, eksport va qishloq aholisining farovonligi oshadi, natijada butun mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlanadi.

2-jadval

Agrar sohada kadrlar tayyorlashning iqtisodiy ta'sir yo'nalishlari, uning ahamiyati, natijasi va afzalliklari²⁰

№	Iqtisodiy ta'sir yo'nalishi	Ahamiyati va natijasi	Iqtisodiy foyda	Izoh
1	Mehnat unumdorligi va hosildorlik oshishi	Malakali mutaxassislar zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etadi.	Hosildorlik 20–50% gacha oshishi mumkin	Raqamlashtirish va innovatsiya ta'siri
2	Tannarx pasayishi va rentabellik oshishi	To'g'ri boshqaruv, resurslardan samarali foydalanish tannarxni kamaytiradi	Mahsulot birligiga xarajat 15–30% ga kamayishi	Yirik va ixtisoslashgan xo'jaliklarda
3	Innovatsiyalar va raqamlashtirishni joriy etish	Yangi bilimlar orqali dron, SI, IoT kabi texnologiyalar qo'llaniladi	Ishlab chiqarish samaradorligi 30–70% oshishi mumkin	Raqamli agrar iqtisodiyot
4	Oziq-ovqat xavfsizligi va importni qisqartirish	Ichki ishlab chiqarish oshib, import xarajatlari qisqaradi	Milliy xavfsizlik va valyuta tejamkorligi	O'zbekiston uchun strategik ahamiyati yuqori
5	Qishloq hududlarida bandlik va daromad oshishi	Malakali kadrlar yangi ish o'rinlari yaratadi, tadbirkorlik rivojlanadi	Qishloq aholisi daromadi 20–40% ga oshishi mumkin	Barqaror rivojlanish
6	Umumiy iqtisodiy o'sishga hissa	Agrar sohaning samaradorligi milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atini tezlashtiradi	Agrar soha orqali YAIMga qo'shimcha 1–3% hissa	Inson kapitali investitsiyasi ta'siri
7	Eksport salohiyatini oshirish	Sifatli va raqobatbardosh mahsulot eksport hajmi ortadi	Eksport daromadi o'sishi (paxta, meva-sabzavot, go'sht)	Xalqaro bozor talablari
8	A'trof-muhitga zarar kamayishi (barqarorlik)	Ekologik toza texnologiyalar qo'llanilishi suv va er resurslarini tejaydi	Uzoq muddatli iqtisodiy tejamkorlik, ekologik barqarorlik	Barqaror rivojlanish maqsadlari
9	Investitsiya jalb qilish qulaylashuvi	Malakali kadrlar mavjud bo'lsa, xorijiy va mahalliy investorlar ko'proq keladi	Investitsiya hajmi oshishi, yangi loyihalar paydo bo'lishi	Investitsion jozibadorlikka ta'siri

²⁰ Muallif ishlanmasi.



Bugungi kunda ish beruvchilar bitiruvchidan faqat diplom va tor mutaxassislik bo'yicha bilimlarni emas, balki quyidagi sifatlarni talab qilmoqda: muammolarni mustaqil hal qila olish; ma'lumot bilan samarali ishlash (topish, tahlil qilish, sintez qilish); jamoada hamkorlik qilish va etakchilik qobiliyati; o'z vaqtini va resurslarini to'g'ri boshqara olish; yangi sharoitlarga tez moslashish va doimiy o'rganishga tayyorlik; og'zaki va yozma kommunikatsiya mahorati; tanqidiy fikrlash va ijodiy echim topish qobiliyati. Shu bois, agrar soha iqtisodiyoti yaxshilashda har bir tizimning muvaffaqiyatli ishlashi lozim bo'ladi. Ya'ni, oliy ta'lim tashkiloti (OTM) va ish beruvchilar (korxona, klaster, tashkilot, davlat idoralari) o'rtasida malakali

kadrlar tayyorlash bo'yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish O'zbekistonda 2020–2030 yillarda oliy ta'limni isloh qilish strategiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu mexanizmlarni boyitish va amaliyotga keng joriy etish uchun iqtisodiy va rag'batlantirish tizimi elementlarni kuchaytirish muhim hisoblanadi (3-jadval).

2-jadvalda oliy ta'lim tizimini iqtisodiyot tarmoqlariga chuqur integratsiya qilish orqali malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishni ko'rsatadi. U faqat ta'lim emas, balki mehnat bozorini boshqarish va innovatsion iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash tizimining yangi modeli hisoblanadi.

3-jadval

Agrar sohada kadrlar tayyorlashda OTM va ish beruvchi o'rtasida iqtisodiy mexanizmlar va rag'batlantirish tizimi

Mexanizm	Ish beruvchi uchun foyda / rag'bat	OTM uchun foyda / rag'bat	Talaba uchun foyda
Kontrakt to'lovini qoplash	Kelgusida o'ziga tayyor mutaxassis oladi	Qo'shimcha moliyaviy mablag', reyting o'sishi	Bepul/arzon o'qish, kafolatli ish
Korxona bazasida kafedra/laboratoriya ochish	O'z ehtiyojiga mos kadrlarni shakllantiradi	Zamonaviy asbob-uskunalar, ilmiy loyihalar	Real texnika va jarayonlarda ishlash
Qo'shma ta'lim modullari ishlab chiqish	O'quv dasturini o'zi xohlagancha shakllantiradi	Daromad (modullar uchun to'lov), pedagoglar malakasi	Zamonaviy kompetensiyalar (AI, drone, GIS va b.)
Amaliyot va stajirovka uchun to'lov	Soliq imtiyozlari, xarajatlarni xarajat sifatida hisoblash	Amaliyot bazalari ko'payishi	Oylik maosh, tajriba shakllantirish
Bitiruvchilarni ishga olish bo'yicha imtiyoz	Davlat tomonidan subsidiya/imtiyoz (soliq chegirma)	Bandlik ko'rsatkichi yuqori bo'lishi va moliyalashtirish	Tez ish topish, karyera boshlanishi
Qo'shma ilmiy-amaliy loyihalar	Innovatsiyalarni joriy etish, patent, texnologiya olish	Grantlar, nashrlar, ilmiy daraja olish imkoniyati	Loyiha ishtirokchisi sifatida tajriba va sertifikat

Ushbu mexanizmlarni amaliyotga joriy etilishi bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi 15–20% ga oshishiga, ish beruvchilarning kasbiy kompetentligi yuqori bo'lgan kadrlarga bo'lgan talabini qondirishga hamda oliy ta'lim tizimining iqtisodiyotga real ta'sir etish darajasini oshirish imkonini beradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimini qishloq xo'jaligi rivojlanishining muhim iqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Agrar sohaning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlari malakali va raqobatbardosh kadrlar mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois agrar ta'lim tizimini takomillashtirish, uni iqtisodiyot ehtiyojlari bilan uzviy bog'lash va mehnat bozori talablariga mos ravishda rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiy mohiyati inson kapitalini shakllantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlash bilan izohlanishi asoslab berildi. Agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni keng qo'llash,

ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalar asosida mutaxassislar tayyorlash zarurligini ko'rsatdi. Bu esa agrar sohaning innovatsion rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, agrar sohada kadrlar tayyorlash tizimini iqtisodiy jihatdan samarali tashkil etish nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Boltayev Nurali Shiramatovich Toshkent davlat agrar universiteti Agrobiznesni boshqarish va logistika kafedrasi dotsenti, i.f.f.d./ Болтаев Нурали Шираматович, доцент кафедры управления агробизнесом и логистикой Ташкентского государственного аграрного университета, доктор экономических наук / Boltayev Nurali Shiramatovich, Associate Professor of the Department of Agribusiness



and Logistics Management at Tashkent State Agrarian University, Doctor of Economics.

E-mail: nurali.boltayev1991@gmail.com

ORCID: 0009-0007-9142-6080

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://www.worldbank.org/en/topic/tertiaryeducation>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 24-fevral kuni bo‘lib o‘tgan “Navqiron avlodning tashabbus intilishlari doimiy qo‘llab-quvvatlanadi” yoshlar bilan muloqoti. «Xalq so‘zi», 25.02.2026-y., №38 (9209). <https://xs.uz/uz/site/newspaper>
3. <https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/1979/schultz/lecture>
4. <https://www.nber.org/system/files/chapters/c3730/c3730.pdf>
5. <https://ageconsearch.umn.edu/record/18269/files/isu338.pdf>
6. Lorena C. Espina-Romero, Sandra Lucia Aguirre Franco Helga Ofelia Dworaczek Conde, Jesús M. Guerrero-Alcedo Doile Enrique Ríos Parra, Juan Carlos Rave Ramírez. Soft skills in personnel training: Report of publications in scopus, topics explored and future research agenda. Article. Heliyon 9 journal (2023) e15468. Page. 1-14. journal homepage: www.cell.com/heliyon.
7. W.Wenjie, A.A.Kurbanbaeva. Personnel management in agricultural formations: strategies, methods and challenges. Article. Izdenister, natijeler – Issledovaniya, rezultaty. №2 (102) 2024, ISSN 2304-3334. DOI <https://doi.org/10.37884/2-2024/60>
8. Abduraim Toshboev, Zohid Ziddikov and Nurali Boltaev. Prospects for the training development of qualified personnel in the agricultural education system: a case study from Tashkent State Agrarian University, Uzbekistan. Article. E3S Web of Conferences Volume 389 (2023) Ural Environmental Science Forum “Sustainable Development of Industrial Region” (UESF-2023) Chelyabinsk, Russia, April 25-28, 2023.
9. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/09/19/agriculture/>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz